

**“Olmaliq KMK” AJ korrupsiyaga  
qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni  
amalga oshiruvchi davlat organlari  
bilan o‘zaro hamkorlik qilish  
tartibi to‘g‘risidagi  
NIZOM**

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2021 yil 6-oktyabrdagi 27-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizom”ning (Adliya vazirligida 08.09.2021-yilda 3319-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) 11-va 12-bandi g) kichik bandlariga muvofiq, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda — Kombinat) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda — vakolatli organlar) bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘zaro hamkorlikni amalga oshirish tartibi, shuningdek bunday hamkorlik doirasida Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tuzilmasi — Komplaens-nazorat xizmatining vakolatlari, huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida, vakolatli organlar bilan bevosita hamkorlik qilish hamda Kombinatning bu yo‘nalishdagi hamkorlik ishlarini muvofiqlashtirish — Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tuzilmasi — Komplaens-nazorat xizmati (keyingi o‘rinlarda — Xizmat) tomonidan amalga oshiriladi.

Mazkur Nizom doirasida Kombinat hamda uning xodimlari ishtirokidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar, shu jumladan manfaatlar to‘qnashuvi kabi holatlar yuzasidan alohida ishlar doirasida yoxud sohadagi tizimli muammolar (ishlar) bo‘yicha hamkorlik qilish, o‘zaro ma‘lumot va axborot almashish, vakolatli organlarning elektron ma‘lumotlar bazalariga erkin kirish va undan foydalanish, qo‘shma ishchi guruhlarini tuzish, birgalikda o‘quv va ilmiy-tadqiqotlar, targ‘ibot va tashviqot kabi boshqa qo‘shma tadbirlarni o‘tkazish nazarda tutiladi.

Ushbu Nizom doirasida Kombinatning vakolatli organlar bilan hamkorligi qonuniylik, o‘zaro manfaatdorlik, tezkorlik, samaradorlik va natijadorlikni ta‘minlash tamoyillariga hamda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari, shuningdek, ushbu sohada ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida keng jamoatchilikni o‘z vaqtida xabardor qilishga asoslanadi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**korrupsiya** — shaxsning o‘z mansab yoxud xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoxud nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaviy harakatlar** — xodim tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat yoxud harakatsizligi (qilmishi) uchun bevosita yoxud bilvosita, shaxsan yoxud uchinchi shaxslar orqali porani, ya‘ni pul, qimmatbaho qog‘ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tUSDagi xizmatlarni, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qilish, vada qilish va berish, shuningdek, pora berish va (yoxud) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar olish, xodim tomonidan pora olish yoxud qonunga xilof boshqa maqsadlarda o‘z xizmat (lavozim) mavqeidan noqonuniy foydalanishi;

**korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi** — amaldagi qonunchilik va Kombinatning ichki normativ hujjatlarini korrupsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, Kombinat va

uning xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va odob-ahloq qoidalariga asosan faoliyat olib borishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

**korrupsiyaviy xavf-xatar** — Kombinat va uning xodimlari yoxud uchinchi shaxslar tomonidan Kombinat ijro apparati bo'linmalari va (yoxud) tarkibiy korxonalar nomidan va (yoxud) ularning manfaatlarini ko'zlab korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli va xavfi;

**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** — korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**xodim (xodimlar)** — Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy korxonalar bilan mehnat munosabatlariga kirishgan har qanday jismoniy shaxs, shu jumladan Kombinat boshqaruvining a'zolari.

3. Ushbu Nizomga muvofiq, Xizmat o'z vakolatlari doirasida Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda Kombinat xodimlarida korrupsiyaning har qanday shakli va ko'rinishiga nisbatan (toqatsiz) murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko'rish maqsadida quyidagi vakolatli organlar va tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yadi:

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Toshkent viloyati, Olmaliq ixtisoslashtirilgan prokuraturasi;

Davlat xavfsizlik xizmati Toshkent viloyati boshqarmasi, Olmaliq shahar bo'limi;

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Olmaliq shahar bo'limi;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tezkor-qidiruv hamkorligi boshqarmasi 1-son ichki ishlar bo'limi;

Toshkent viloyati Adliya boshqarmasi, Olmaliq shahar Adliya bo'limi;

Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi Olmaliq shahar bo'limi;

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Olmaliq shahar bo'limi;

O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga ko'ra, qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilish va tekshirish vazifasi yuklatilgan, shuningdek korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish vakolatiga ega bo'lgan boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan ham hamkorlik amalga oshiriladi.

4. Ushbu Nizomga asosan Xizmat vakolatli organlar va tashkilotlar bilan quyidagi yo'nalishlarda o'zaro hamkorlik qiladi:

a) Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish sohasida:

Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish borasida;

Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Boshqaruv raisiga kiritish borasida;

Kombinat faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki normativ hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish borasida;

Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy korxonalar tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar loyihalarini Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazaridan baholash va xulosalar berish borasida;

Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni ishlab chiqish borasida.

b) Kombinatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy korxonalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlari, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejalarini umumlashtirish hamda Kombinat ijro apparati va tarkibiy korxonalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish borasida;

Kombinatda o'xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 (ellik) foizdan yuqori tashkilotlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo'nalishlari haqida ma'lumot va axborot to'plash borasida;

Kombinatda tashkil qilingan maxsus axborot aloqa kanallari orqali Kombinat xodimlari ishtirokida sodir etilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni birgalikda tahlil qilish va ularni belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishini ta'minlash borasida;

Kombinatda yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reestri yoxud o'tkazilgan xizmat tekshiruvlarini ro'yxatga oladigan boshqa tegishli hujjatda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri va to'liq aks ettirib borilishini nazorat qilish borasida;

davlat va korporativ xaridlarni amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilish va Kombinat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishish harakatida yurgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning (yakka tartibdagi tadbirkorlarning) ishonchligini tekshirish borasida;

Kombinat ijro apparatidagi hamda tarkibiy korxonalar xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar berish borasida;

korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo'ljallangan Kombinatning maxsus axborot aloqa kanallarining faoliyat natijalarini tahlil qilish va tahliliy materiallarni Boshqaruv raisiga hamda Kombinat xodimlariga yetkazish borasida;

Kombinat faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi hamda Kombinat xodimlari o'rtasida korrupsiyaga oid ijtimoiy so'rovlar o'tkazish borasida;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi natijasida intizomiy javobgarlikka tortilayotgan xodimlarga nisbatan ko'rilayotgan jazo choralarining mutanosibligi va yetarli ekanligini nazorat qilish borasida;

Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha joriy etilgan tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Kombinat ijro apparati va/yoxud tarkibiy korxonalar tomonidan korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan dastlabki surishtiruv yoki xizmat tekshiruvlari natijalariga oid ma'lumot va axborotlarni tahlil qilish borasida;

har chorakda, shuningdek alohida holatlarda Boshqaruv raisining topshirig'iga ko'ra, Kombinat hamda uning tarkibiy korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda korrupsiyaviy holat to'g'risida Boshqaruv raisiga ishonchli va tekshirilgan ma'lumot kiritib borish borasida;

v) Kombinat hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha joriy qilingan tizimning samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish sohasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Kombinatga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qilish va nazoratini amalga oshirish borasida;

Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha joriy qilingan tizimning ISO-37001:2016 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga mosligini ta'minlash borasida;

Kombinat ijro apparatidagi xamda tarkibiy korxonalar xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismini ishlab chiqish borasida;

Kombinat xodimlarini o'qitish, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatarlari yuqori bo'lgan lavozimlarni egallab turgan xodimlar uchun korrupsiyaning oldini olish bo'yicha maxsus o'quv materiallarini ishlab chiqish borasida;

o'quv rejaga muvofiq Kombinatning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglarning o'tkazilishini hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qilish borasida;

Kombinat xodimlari hamda fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarida ishtirok etish borasida;

Kombinatning rasmiy veb-saytidagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirilgan ma'lumotlarni yangilanib borilishini ta'minlash borasida;

Kombinat xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va tashkilotning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish borasida;

Kombinat xodimlari ishtirokida sodir etilgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari surish hamda unda ishtirok etish borasida;

odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshirish borasida;

amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish borasida;

Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul tuzilma (shaxs)lar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish borasida;

Kombinat faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki normativ hujjatlarga hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar o'tkazish borasida;

g) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etish borasida;

qonunchilik hujjatlari bilan Kombinat zimmasiga yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuborish va ularning so'rovlariga javob berishda ishtirok etish borasida;

Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish borasida;

korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish borasida.

Komplaens-nazorat xizmati qonunchilik hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining boshqa yo'nalish va sohalarda ham huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

5. Kombinatning Komplaens-nazorat xizmati, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari bilan quyidagi yo'nalishlarda bevosita hamkorlik qiladi:

“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati bo'linmalari hamda tizimdagi korxonalarda korrupsiya holatini tizimli ravishda tahlil qilish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan o'zaro hamkorlikda takliflar ishlab chiqish;

Kombinat ijro apparati hamda tizimdagi korxonalar tomonidan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan faoliyatni muvofiqlashtirish hamda nazoratini amalga oshirish;

Yuridik departament tomonidan Kombinatning ichki normativ hujjatlari hamda ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tartib-taomillarining samaradorligini ta'minlash;

Kombinat ixtiyoridagi moliyaviy mablag'lar, jumladan xalqaro moliyaviy tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzlaridan maqsadli va samarali foydalanish, Kombinat ixtiyoridagi aktivlarni, mol-mulklarni, tovar-moddiy boyliklarni realizatsiya (tasarruf) qilish va Kombinat tomonidan amalga oshirilayotgan xaridlar va tanlovlar sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, uni takomillashtirish bo'yicha qo'shma takliflarni ishlab chiqish;

Kombinat ijro apparati hamda tizimdagi korxonalarda korrupsiyaning oldini olish, barvaqt aniqlash va unga qarshi kurashish bo'yicha Kombinat Axborot (matbuot) xizmati bilan hamkorlikda axborot tarqatish, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro samarali hamkorlikni ta'minlash;

Kombinat ijro apparati hamda tizimdagi korxonalarining ehtiyojlari uchun tovar moddiy boyliklarni xarid qilish tartibotlari va tanlovlar, fuqarolarni ishga qabul qilish, xodimlarning lavozimlarini o'zgartirish, ularni moddiy va boshqa shaklda rag'batlantirish, Kombinatning kredit va qarz mablag'laridan samarali, oqilona va maqsadli foydalanish, xususiylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish, mol-mulklarni, aktivlarni, tovar-moddiy boyliklarni hisobdan chiqarish (списать), yoqilg'i-moylash materiallaridan, texnika, asbob-

uskunalar, materiallar va ehtiyot qismlardan maqsadli va samarali foydalanish, qurilish va rekonstruksiya ishlarida qonunchilik talablarini ta'minlash;

Kombinat ijro apparati hamda tizimdagi korxonalarda korrupsiyaning holati, rivojlanishi va sabablarini aniqlash maqsadida sosiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlar o'tkazishni tashkil etish, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash.

6. Ushbu Nizom doirasida Komplaens-nazorat xizmatining korrupsiyaga qarshi kurashuvchi davlat vakolatli organlari bilan o'zaro hamkorligi quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida o'zaro ma'lumot almashish;

korrupsiya faktlari bo'yicha jinoyat ishlari, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar, shuningdek, korrupsiyaviy faktlarga nisbatan munosabat bildirish bo'yicha ko'rilgan choralar to'g'risida o'zaro ma'lumot almashish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining elektron va boshqa ma'lumotlar bazalaridan Kombinat ijro apparati bo'linmalari va/yoxud tizimdagi korxonalarda aniqlangan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida Komplaens-nazorat xizmatining vakolatli xodimlariga ma'lumot va axborotlarni erkin va tezkor olishi uchun barcha zarur shart va sharoitlarni yaratish va ta'minlab berish;

tadqiqotlar va ma'muriy surishtiruvlar o'tkazish, xizmat tekshiruvlarini o'tkazish, monitoring va nazorat tadbirlarini amalga oshirish hamda tahliliy materiallar tayyorlash bo'yicha qo'shma ishchi guruhlarini tuzish;

statistik va boshqa shakldagi ma'lumotlarni o'zaro almashish;

jamoatchilik e'tiborini tortgan korrupsiya to'g'risidagi faktlarga oid mavjud ma'lumotlarni birgalikda o'rganish hamda OAVda nashr etish.

7. Kombinat boshqaruv a'zolari, tizimdagi korxonalarining ishchi va xodimlari, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari xodimlari o'zaro hamkorlik jarayonida ularga ma'lum bo'lib qolgan davlat sirlarini, tijorat yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarni tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari shart.

## **2-bob. Kombinat va uning tarkibida korrupsiyaning oldini olish borasida yagona davlat siyosatini yuritishni ta'minlash borasidagi o'zaro hamkorlik**

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari, jinoyat ishini qo'zg'atish yoxud boshqa ta'sir choralari ko'rish uchun o'zlariga yuborilgan korrupsiya faktlari to'g'risidagi xabarlarini ko'rib chiqish holati va natijalari to'g'risida Komplaens-nazorat xizmatini prosessual qonunchilikda belgilangan muddatlarda va tartibda rasman xabardor qiladi.

9. Komplaens-nazorat xizmati, Kombinat ijro apparati va/yoxud tizimdagi korxonalar xodimlari ishtirokida sodir etilganligi aniqlangan, ommaviy rezonans va muhokamalar, ya'ni jamoatchilikning ma'lum bir hodisaga nisbatan hissiy munosabatiga sabab bo'lgan, jamoatchilik e'tiborini tortgan va turli bahs-munozaralarni keltirib chiqargan korrupsiyaga oid faktlar aks etgan xabarlar (keyingi o'rinlarda — muhokamaga sabab

bo'lgan huquqbuzarliklar)ga oid ishlarning ko'rib chiqilishi bilan bog'liq ma'lumot va axborotlarni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlaridan, so'rab olish huquqiga ega.

10. Komplaens-nazorat xizmati ishni ko'rib chiqayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari bilan birgalikda muhokamaga sabab bo'lgan huquqbuzarliklar yuzasidan jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida, protsessual qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilgan holda hamda tergov sirlarini oshkor qilmagan holda, matbuot anjumanlari o'tkazishi mumkin.

11. Komplaens-nazorat xizmati ushbu Nizomning 2-bandida ko'rsatilgan organlar bilan hamkorlikda muhokamaga sabab bo'lgan huquqbuzarliklar to'g'risida besh kunlik muddatda, boshqa korrupsiyaviy jinoyat va huquqbuzarliklar to'g'risida hamkor organlar bilan kelishuvga asosan muayyan muddatda (chorak hamda yarim yillik yakunlari) yoxud har yili protsessual qonunchilikka muvofiq tergov sirlari, shuningdek, davlat siri yoxud qonun hujjatlari bilan muhofaza qilinadigan boshqa ma'lumotlarni oshkor qilmagan holda, korrupsiyaga oid jinoyatchilik holati, tendensiyalari, sodir bo'lishining sabab va shart-sharoitlari, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida yil yakuni bo'yicha keng jamoatchilikni xabardor qiladi.

### **3-bob. Kombinat xodimlari ishtirokida sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar to'g'risidagi murojaatlar yuzasidan o'zaro hamkorlik**

12. Kombinatning maxsus aloqa kanallari orqali, ishchi va xodimlar yoxud uchinchi shaxslardan (jismoniy va yuridik shaxslardan) Kombinat va uning tizimida sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyat alomatlari mavjudligi to'g'risida murojaat va xabarlar kelib tushgan taqdirda, ushbu murojaat jinoyat va huquqbuzarlik alomatlarini tasdiqlovchi holatlar, ya'ni xizmat xati yoxud tasdiqlangan telefonogramma, telegramma yoxud radiogramma ilova qilingan holda zudlik bilan Olmaliq ixtisoslashtirilgan prokuraturasi hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi boshqa davlat organlariga holat bo'yicha qonuniy chora ko'rish (jinoyat ishi qo'zg'atish) masalasini hal qilish uchun yo'naltiriladi.

Bunday hujjatlar va materiallarning nusxalari Boshqaruv raisiga, Kuzatuv kengashiga hamda majburiy tartibda O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ham ma'lumot uchun kiritiladi.

13. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari hamda Kombinat o'rtasidagi o'zaro amaliy hamkorlik masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha har ikki tarafdin ham mas'ul va mutasaddi vakolatli xodimlar tegishli buyruqlar asosida tayinlanadi.

### **4-bob. Kombinat ijro apparatida hamda tizimdagi korxonalarda aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarini birgalikda o'rganish borasidagi hamkorlik**

14. Kombinat ijro apparati va/yoxud tizimdagi korxonalarining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun tovar-moddiy boyliklarni xarid qilish tartibotlari va tanlovlar, fuqarolarni ishga qabul qilish, xodimlarning lavozimlarini o'zgartirish, ularni moddiy va boshqa



shaklda rag'batlantirish, Kombinatning kredit va qarz mablag'laridan samarali, oqilona va maqsadli foydalanish, aktivlarni xususiylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish, mol-mulklarni, aktivlarni, tovar-moddiy boyliklarni hisobdan chiqarish (списать), yoqilg'i-moylash materiallaridan, texnika, asbob-uskunalar, materiallar va ehtiyot qismlardan maqsadli va samarali foydalanish, qurilish va rekonstruksiya jarayonidagi huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarini o'rganish jarayonida Kombinatning Komplaens-nazorat xizmati quyidagi huquq hamda vakolatlarga ega:

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlaridan, shuningdek Kombinat boshqaruvi, ijro apparati bo'linmalari, tarkibiy bo'linmalardan o'rganish predmetiga oid hujjat va ma'lumotlarni so'rash va olish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarining so'rovnomalariga (taqdimnomalariga) asosan, Kombinat boshqaruvi, ijro apparati bo'linmalari hamda tizimdagi korxonalarda aniq faktlar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish haqida so'rov yuborish va bunday tadbirlar natijalari to'g'risidagi axborot va ma'lumotlarni ulardan olish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarining, shuningdek Kombinat boshqaruvi, ijro apparati, hamda tizimdagi korxonalarining elektron va boshqa turdagi ma'lumotlar bazalaridan erkin va moneliklarsiz foydalanish;

korrupsiyaga oid jinoyatlar tufayli Kombinatning manfaatlariga yetkazilgan zararining o'rni to'liq qoplanishiga erishilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarining yopiq ma'lumotlar bazalaridan foydalanishning shartlari va qoidalari har bir holatda taraflar o'rtasida alohida tuziladigan kelishuv asosida hal etiladi.

15. Komplaens-nazorat xizmati o'z vakolatlari doirasida o'tkazilgan o'rganish materiallari (xizmat tekshiruvlari, o'rganish, monitoring va nazorat tadbirlari) bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlariga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi mazmundagi o'z taklif va tavsiyalarini kiritadi:

jinoyat ishini qo'zg'atish;

ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atish.

16. Komplaens-nazorat xizmati Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tizimdagi korxonalar uchun ijrosi majburiy hisoblangan intizomiy huquqbuzarlikka oid ish qo'zg'atish yoxud boshqa tegishli choralarni ko'rish to'g'risidagi taqdimnomalarni kiritadi.

17. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan o'rnatilgan tartibda qo'zg'atilgan ma'muriy va jinoiy ishlar doirasida, Kombinat ijro apparatidagi bo'linmalar hamda tizimdagi korxonalarining elektron va boshqa shakldagi ma'lumotlar bazalaridan Komplaens-nazorat xizmatining axborot va ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri tezkor ravishda olish huquqi (vakolati) va Boshqaruv raisi hamda Boshqaruv a'zolari tomonidan kafolatlanadi. Ushbu huquqni (vakolatni) amalga oshirish jarayonida Xizmat xodimlari faoliyatiga u yoki bu shaklda monelik yoxud to'sqinlik qilgan mansabdor shaxslar hamda xodimlar o'rnatilgan tartibda javobgarlikka tortiladi.

18. Kombinat ijro apparatida va/yoxud tizimdagi korxonalarda sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga oid, shuningdek Komplaens-nazorat xizmati tomonidan mustaqil ravishda o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari (o'rganish, monitoring yoxud nazorat tadbirlari) natijasida aniqlangan ma'lumotlar Boshqaruv raisiga, Kuzatuv kengashiga, shuningdek Boshqaruv raisining topshirig'i (rezolyutsiyasi) asosida huquqni muhofaza qilish organlariga qonuniy chora ko'rish uchun yuboriladi.

### **5-bob. Kombinatning ichki normativ hujjatlari hamda ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish borasidagi o'zaro hamkorlik**

19. Komplaens-nazorat xizmati jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, ommaviy axborot vositalarining xabarlarini o'rganish asosida, shuningdek, o'z tashabbusi bilan Kombinatning amaldagi ichki normativ hujjatlari yoxud ularning loyihalarini vakolatli bo'linmalar (Yuridik departament, loyiha tashabbuskorlari) tomonidan korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni ta'minlash to'g'risidagi taklif bilan chiqish huquq va vakolatiga ega.

Bunda, Komplaens-nazorat xizmatining so'roviga asosan, Yuridik departament so'rov kelib tushgan kundan boshlab o'n kalendar kundan kechiktirmay Kombinatning ichki normativ hujjati yoxud uning loyihasini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazadi va korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarning mavjudligi yoxud mavjud emasligi to'g'risida o'zining rasmiy xulosasini Chek list shaklida Komplaens-nazorat xizmatiga taqdim qiladi.

20. Zaruratga ko'ra, Kombinatning ichki normativ hujjatlari yoxud ularning loyihalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish uchun Komplaens-nazorat xizmati adliya organlarining hamda Yuridik departamentning tegishli malaka va tajribaga ega bo'lgan mas'ul xodimlarini jalb qilgan holda, Ishchi guruh tashkil etish to'g'risidagi taklifni Boshqaruv raisiga kiritadi.

21. Kombinatning so'roviga binoan, Olmaliq ixtisoslashtirilgan prokuraturasi, 1-son ichki ishlar bo'limi hamda Olmaliq shahar adliya bo'limi o'n kun muddatda tegishli malaka va tajribaga ega bo'lgan xodimlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish bo'yicha Ishchi guruh tarkibiga safarbar etish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi hamda ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda xodimning Ishchi guruh faoliyatida ishtirok etishini ta'minlaydi.

22. Yuridik departament Kombinatning ichki normativ hujjatlari yoxud ularning loyihalarini huquqiy ekspertizadan hamda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish natijasida korrupsiya bilan bog'liq qoidalar yoxud tartib-taomillar aniqlangan taqdirda, bu haqda zudlik bilan (3 kun muddatda) Boshqaruv raisini xabardor qiladi hamda Kombinatning tegishli ichki normativ hujjat loyihasini ishlab chiqib o'rnatilgan tartibda tasdiqlash uchun kiritadi.

### **6-bob. Yakuniy qoidalar**

23. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari va Komplaens-nazorat xizmati o'zaro hamkorlik doirasida ma'lumot almashish jarayonida axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishlari mumkin.

23. Komplaens-nazorat xizmati, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari bilan hamkorlik doirasida olingan ma'lumotlarni to'playdi, saqlaydi, qayta ishlaydi hamda Kombinat ijro apparati hamda tizimdagi korxonalarda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida ushbu ma'lumotlardan foydalanadi.

24. Komplaens-nazorat xizmati, mazkur Nizom ijrosini har yil yakuni bo'yicha tahlil qilib boradi va zaruratga qarab uni yanada takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarini Boshqaruv raisiga hamda Kuzatuv kengashiga taqdim qiladi.

25. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik hujjatlari o'zgargan taqdirda yoxud xizmat tekshiruvlarini o'tkazish bilan bog'liq tartib-taomillarni takomillashtirish zarurati tug'ilganda qayta ko'rib chiqilishi va o'zgartirilishi lozim.

26. Ushbu Nizom qoidalarini buzishda aybdor deb topilgan mansabdor shaxslar hamda xodimlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda Kombinatning ichki normativ hujjatlarida belgilangan tartib va asoslarda intizomiy yoxud boshqa shakldagi javobgarlikka tortiladilar.